

«Dehqonobod kaliy zavodi» AJ
Kuzatuv kengashining
2023-yil 13 fevral dagi 4/1-son qaroriga

3 - ILOVA

MUNDARIJA

- I. Umumiy qoidalar
- II. Mustaqil tashkilot tanlovini tashkil etish tartibi
- III. Tanlov ishtirokchilariga qo'yiladigan talablar
- IV. Tanlov takliflarini taqdim qilish tartibi
- V. Tanlov g'olibini aniqlash tartibi
- VI. Axborotni oshkor qilish
- VII. Javobgarlik
- VIII. Yakunlovchi qoidalar

«Dehqonobod kaliy zavodi» aksiyadorlik jamiyatida korporativ boshqaruv tizimini baholashni o'tkazish uchun mustaqil tashkilotni tanlash TARTIBI

I. UMUMIY QOIDALAR

1. Mazkur «Dehqonobod kalyi zavodi» aksiyadorlik jamiyatida korporativ boshqaruv tizimini baholashni o'tkazish uchun mustaqil tashkilotni tashlash to'g'risidagi Tartib (keyingi o'rinlarda Tartib deb ataladi) «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonuni (keyingi o'rinlarda Qonun deb ataladi), Korporativ boshqaruv kodeksi tavsiyalari (Aksiyadorlik jamiyatlarini faoliyatining samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha komissiya majlisining 2015-yil 31-dekabrda 9-son bayonnomasi bilan tasdiqlangan), «Dehqonobod kalyi zavodi» aksiyadorlik jamiyatining Ustavi (keyingi o'rinlarda Ustav deb ataladi) va jamiyatning boshqa normativ hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan.
2. Mazkur Tartib Jamiyatda korporativ boshqaruv tizimini baholashni o'tkazish uchun mustaqil tashkilotni tashlash tartibini belgilaydi.
3. Korporativ boshqaruv kodeksi tavsiyalarini tatbiq etish va jamiyatda korporativ boshqaruv tizimining holati to'g'risida mustaqil fikrni shakllantirish jamiyatda korporativ boshqaruv tizimini baholashning maqsadi hisoblanadi.
4. Jamiyatda korporativ boshqaruv tizimini mustaqil baholash natijalari jamiyatning Kuzatuv kengashi a'zolari ni mukofotlash miqdorini aniqlashda qo'llaniladi.
5. Jamiyatda korporativ boshqaruv tizimini mustaqil baholashni o'tkazish yilda kamida bir marta, lekin Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi majlisini o'tkazish sanasigacha bir oydan kechiktirmay o'tkaziladi.
6. Jamiyatda korporativ boshqaruv tizimini mustaqil baholashni o'tkazish jamiyat bilan mulkiy munosabatlarga bog'liq bo'lmagan tashkilot (keyingi o'rinlarda mustaqil tashkilot deb ataladi) bilan tegishli shartnoma asosida amalga oshiriladi.
7. Mazkur Tartib mustaqil tashkilotni tashlash jarayonida ishtirok etuvchi jamiyatning ijroiya organi, Kuzatuv kengashi a'zolari, shuningdek mansabdor shaxslari va xodimlariga nisbatan qo'llaniladi.

II. MUSTAQIL TASHKILOT TANLOVINI TASHKIL ETISH TARTIBI

8. Mustaqil tashkilotni tashlash jamiyatda korporativ boshqaruv tizimini baholashni o'tkazish to'g'risidagi shartnomaning maqbul shartlarini aniqlashga qaratilgan tanlovni (keyingi o'rinlarda tanlov deb ataladi) o'tkazish orqali amalga oshiriladi.
9. Mustaqil tashkilotni aniqlash uchun tanlov moliya yili tugaganidan keyin har yili, lekin aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanasigacha ikki oydan kechiktirmay o'tkaziladi.
10. Korporativ boshqaruv tizimini baholashni o'tkazish uchun mustaqil tashkilot tanlovini o'tkazish bo'yicha tashkiliy tadbirlarni amalga oshirish uchun jamiyatning Kuzatuv kengashi tomonidan tarkibi 5 kishidan iborat tanlov komissiyasi tashkil qilinadi.
11. Tanlov komissiyasi:
 - a) Tanlovni o'tkazish tartibi, tanlov takliflarini qabul qilish muddati va tanlovni o'tkazish vaqtini belgilaydi;
 - b) Tanlovda ishtirok etish uchun taqdim etiladigan materiallar va hujjatlarining ro'yxatini tasdiqlaydi;
 - v) Mazkur Tartib talablariga muvofiq tegishli materiallar va hujjatlarini taqdim qilish, tanlovni o'tkazish shartlari va talablarni tanlov ishtirokchilariga yetkazadi;
 - g) Zarur hollarda tanlov ishtirokchilaridan kelib tushgan ma'lumotlar, materiallar va hujjatlarini aniqlash tartibi;
 - d) Tanlovni o'tkazish tadbirlarini tashkil qiladi;
 - y) Tanlov ishtirokchilari taqdim etgan taklif va hujjatlarini har tomonlama va holisona ko'rib chiqadi, jamiyat uchun naf keltiradigan taklifni aniqlaydi;
 - j) Tanlov ishtirokchilarini va jamiyat Kuzatuv kengashini tanlov natijalari to'g'risida xabardor qiladi.
12. Tanlov komissiyasi jamiyatning ijroiya organi rahbari tomonidan tanlov o'tkazish to'g'risidagi qaror imzolanganidan besh kalendar kumidan kechiktirilmagan muddatda jamiyatning

korporativ veb-saytida va respublika bosma nashrlarida jamiyatda korporativ boshqaruv tizimini baholash uchun tanlov o'tkazish to'g'risidagi xabarni chop etadi.

13. Tanlov o'tkazish to'g'risidagi xabar quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi shart:

- a) jamiyatning nomi;
- b) jamiyatning pochta manzili;
- v) tanlov predmeti;
- g) tanlov takliflarini taqdim etish uchun manzil, shu jumladan elektron manzil;
- d) tanlovda ishtirok etish uchun takliflarni taqdim qilish muddati;
- y) korporativ boshqaruv tizimini baholashni o'tkazishni amalga oshirish uchun talab qilinadigan muddatlar;
- j) tanlov ishtirokchilariga qo'yiladigan talablar;
- z) tanlovni o'tkazish joyi va vaqti, shuningdek takliflarni qabul qilish, tanlovni o'tkazish bo'yicha tushuntirish berish va u bilan bog'liq materiallar va hujjatlarini rasmiylashtirish vakolatiga ega mansabdor shaxslarning familiyasi, telefonlari, joylashgan yeri, xona raqamlari;
- i) boshqa zarur ma'lumotlar.

14. Takliflarni taqdim qilishning oxirgi muddati tanlovni o'tkazish to'g'risidagi xabar chop etilganidan o'ttiz kalendar kumidan kechiktirmay belgilanishi shart. Mazkur vaqtdan keyin kelib tushgan takliflar haqiqiy emas deb hisoblanadi va tanlov komissiyasi tomonidan ko'rib chiqish uchun qabul qilinmaydi.

Zarur hollarda jamiyat takliflarni taqdim qilish oxirgi muddatini ko'chirishi mumkin. Bunda komissiya jamiyatning korporativ veb-saytida va respublika bosma nashrlarida tanlov takliflarini taqdim qilishning oxirgi muddati to'g'risidagi xabarni chop etadi.

15. Agar tanlov komissiyasi majlisida komissiya a'zolarining kamida uchdan ikki qismi qatnashsa tanlov komissiyasining majlisi qonuniy hisoblanadi. Qaror tanlov komissiyasi a'zolari umumiy sonining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lib qolgan taqdirda tanlov komissiyasi rasi hal qiluvchi ovozga ega bo'ladi.

16. Komissiyaning barcha qarorlari majlisda ishtirok etgan komissiya a'zolari tomonidan imzolangan bayonnomaga bilan rasmiylashtiriladi.

17. Tanlov komissiyasining a'zolari quyidagilarga majburlar:

- o'z faoliyatida qonun hujjatlari va mazkur Tartib talablariga amal qilish;
- tanlov komissiyasi majlislarida shaxsan ishtirok etish;
- ular ishtirok etgan, baholash natijalari va tanlov takliflari solishtirilgan, tanlov yakunlari qayd etilgan tanlov komissiyasi majlisi bayonnomasini shaxsan imzolash;
- belgilangan mezonlarga hamda mazkur Tartibda o'rnatilgan tartibda har bir ko'zda tutilgan tanlov mezonlarga muvofiq tanlov takliflarini baholash to'g'risidagi qarorni qabul qilish;
- tanlovni o'tkazish davomida ularga ma'lum bo'lgan ma'lumotlarning maxfiyligiga rioya qilish.

18. Tanlov komissiyasi (a'zolari) quyidagilarga haqli:

- a) tanlovga taqdim etilgan barcha hujjatlar va ma'lumotlar bilan tanishish;
 - b) tanlov komissiyasi majlisining kun tartibidagi masalalar yuzasidan so'zga chiqish;
 - v) bayonnomaga tuzishning to'g'riligi, tanlov takliflarini baholash va solishtirish, tanlov yakunlarini chiqarish to'g'riligini, shu jumladan, o'z nuqtinang bayonnomada to'g'ri ifodalanganligini tekshirish;
 - g) O'zbekiston Respublikasi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonun asosida mustaqil baholovchini electron do'kondan xarid qilish (tanlab olish).
- Tanlov komissiyasi a'zolari tanlovni o'tkazish davomida tanlov komissiyasining qarorlariga ta'sir ko'rsatadigan xatti-harakatlarni qo'llashga haqli emaslar.

III. TANLOV ISHTIROKCHILARIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

19. Quyidagi tashkilotlar tanlovda ishtirok etishga yo'l qo'yiladi:

- a) fond birjasi;
- b) qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilari;

- v) shtat tarkibida tegishi guvohnomaga ega bo'lgan korporativ boshqaruvchi yoki qimmatli qog'ozlar bozori mutaxassisi bor auditorlik tashkilotlari;
- g) akkreditatsiya qilingan reyting agentliklari;
- d) korporativ boshqaruv imiyi-ta'lim Markazi;
- y) xususiylashirish, korporativ boshqaruvni va qimmatli qog'ozlar bozori rivojlantirish muammolarini tadqiq etish Markazi.

20. Tanlov ishtirokchilariga qo'yiladigan talablar:

- a) qimmatli qog'ozlar bozorida 1 yildan kam bo'lmagan ish tajribasiga ega bo'lish;
- b) qimmatli qog'ozlar bozori mutaxassisi amaldagi guvohnomasiga ega bo'lgan shtat jadvalida bittadan kam bo'lmagan qimmatli qog'ozlar bozori mutaxassisining mavjudligi;
- v) aksiyadorlik jamiyatlarida avvalgi o'tkazilgan korporativ boshqaruv tizimini baholash bo'yicha tashkilot ishiga salbiy baholalar berilgan holatlarni mavjud emasligi.

21. Tanlov ishtirokchilari quyidagilarga haqli:

- a) tanlov komissiyasiga ko'rib chiqilishi uchun tanlov takliflarini berishning muddati tugaguncha, lekin o'n kalendar kumidan kechiktirmay, mazkur Tartib, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan talablar bo'yicha tushuntirishlar olish uchun tanlov komissiyasiga yozma shaklda murojaat qilish. Tanlov ishtirokchisining so'roviga tanlov komissiyasi tomonidan uch kun ichida javob beriladi;
- b) tanlov takliflarini taqdim qilishning oxirgi muddati tugaguncha o'z taklifini qaytarib olishi mumkin.

IV. TANLOV TAKLIFLARINI TAQDIM QILISH TARTIBI

22. Tanlov ishtirokchisi tanlov takliflarini taqdim qilishning oxirgi muddatigacha tanlov shartlariga muvofiq tayyorlangan tanlov takliflarini taqdim etadi.

23. Tanlov ishtirokchilari tomonidan tayyorlangan va taqdim etilgan tanlov takliflari quyidagi hujjatlardan iborat bo'lishi shart:

- a) tanlov ishtirokchisining baholashni o'tkazishning dastlabki bahosi ko'rsatilgan tanlovda ishtirok etish to'g'risida taklifi (pechatlangan yopiq konvertida beriladi);
- b) davlat ro'yxatidan o'tganlik to'g'risidagi guvohnomaning nusxasi;
- v) ta'lim hujjatlarining nusxalari;

g) tegishli litsenziyaning nusxasi (mavjud bo'lsa);

d) qimmatli qog'ozlar bozorining mutaxassisi malakaviy guvohnomasining va (yoki) korporativ boshqaruvchi malakaviy guvohnomasining nusxasi;

y) korxonaga to'g'risida ma'lumot;

j) mustaqil tashkilotning eng yirik mijozlarining ro'yxati va qimmatli qog'ozlar bozorida mustaqil tashkilotning tegishli ish tajribasi;

z) baholash o'tkazishning ish rejasi va ishni bajarish muddatlari;

i) taqdim etilgan hujjatlarining ro'yxati;

k) tanlov shartlariga muvofiq taqdim etilishi zarur bo'lgan boshqa hujjatlar.

24. Tanlov ishtirokchilari tomonidan berilgan barcha hujjatlar tanlov komissiyasida qoladi va qaytarib berilmaydi.

25. Tanlov quyidagi hollarda bo'lib o'tmagan deb e'tirof etiladi:

a) agar unda ikkitadan kam tanlov ishtirokchilari ishtirok etgan bo'lsa;

b) agar tanlov ishtirokchilarining takliflari tanlov shartlariga javob bermasligi e'tirof etilsa.

Tanlov bo'lib o'tmagan deb e'tirof etilgan taqdirda, tanlov komissiyasining qaroriga ko'ra takroran tanlov o'tkazish to'g'risidagi xabar chop etiladi.

V. TANLOV G'OLIBINI ANIQLASH TARTIBI

26. Tanlov komissiyasi belgilangan vaqtda tanlov ishtirokchilaridan kelib tushgan konvertlarni ochadi. Konvertlarni ochish natijalari, ya'ni tanlov ishtirokchisining korporativ boshqaruv tizimini baholashni o'tkazish bo'yicha xizmatlarning narxi to'g'risidagi taklifi tanlov komissiyasi majlisining bayonnomasida qayd qilinadi.

27. Tanlov komissiyasi tanlov ishtirokchilaridan kelib tushgan takliflarni o'rganadi va mazkur Tartibning 1-ilovasiga muvofiq kelib tushgan tanlov takliflarini baholashni o'tkazadi.

28. Olingan ballar jamlanadi. Agar ishtirokchilar bir xil bal yig'salar, unda xizmatlarning eng kam narxi inobatga olinadi. Agar xizmatlar bir xil narxda bo'lsa, unda "ish tajribasi" ko'rsatkichi bo'yicha olingan ballar inobatga olinadi. Agar takroran bir xil ballar yig'lsa, «...» ko'rsatkichi bo'yicha olingan ballar inobatga olinadi. Agar ishtirokchilar yana takroran bir xil ballar yig'salar, «...» ko'rsatkichi bo'yicha olingan ballar inobatga olinadi. Agar takroran bir xil ballar yig'lsa, sanalar bo'yicha oldin berilgan tanlov taklifi hisobga olinadi.

29. Tanlov natijalari tanlov komissiyasi majlisining tegishli bayonnomasi bilan ramiylashtiriladi.

30. Tanlov natijalarining amalga oshirilganidan keyin 3 kun ichida tanlov komissiyasi mustaqil tashkilot nomzodi – tanlov g'olibi bo'yicha axborotni Jamiyatning Kuzatuv kengashiga ko'rib chiqish uchun kiritadi.

31. Jamiyatda korporativ boshqaruv tizimini baholashni o'tkazish uchun mustaqil tashkilotni tanlash to'g'risidagi qaror Jamiyatning Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

32. Jamiyatning Kuzatuv kengashi tomonidan mustaqil tashkilot tasdiqlanganidan so'ng tanlov komissiyasi 3 kun ichida tanlov g'olibini bu haqda xabar beradi.

33. Tanlov g'olibi uning tanlov taklifi g'olib deb e'tirof etilganligi to'g'risidagi xabarni olganidan boshlab 10 kun ichida Jamiyatda korporativ boshqaruv tizimini baholashni o'tkazish to'g'risidagi shartnomani Jamiyatning ijroiya organi bilan imzolashi yoki tanlov komissiyasini mavjud kelishmovchiliklar yoki shartnoma tuzishdan bosh tortish to'g'risida yozma xabardor qilishi shart.

34. Agar tanlov g'olibi deb e'tirof etilgan tanlov ishtirokchisi belgilangan muddatlarda baholashni o'tkazish to'g'risidagi shartnomani imzolamasa, tanlovning boshqa ishtirokchisi bilan shartnoma tuzilishi mumkin. Bunday holatda tanlov komissiyasi tanlov taklifi ilgari g'olib deb e'tirof etilgan ishtirokchidan keyingi o'rinni egallagan ishtirokchini tanlov g'olibi deb e'tirof qilishga haqli.

35. Tanlovni va korporativ boshqaruv tizimini yillik baholashni o'tkazish bilan bog'liq harajatlarni Jamiyat mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

VI. AXBOROTNI OSHKOR QILISH

36. O'tkazilgan korporativ boshqaruv tizimini mustaqil baholash natijalari bunday baholashni o'tkazgan mustaqil tashkilotning xulosasi bilan Jamiyatning korporativ veb-saytida joylashtiriladi.

37. O'tkazilgan baholash natijalari bo'yicha Jamiyat ommaviy axborot vositalarida Korporativ boshqaruv kodeksining ayrim tavsiflariga rioya qilishning imkoniy mavjud bo'lmaganligi to'g'risidagi axborotni ham chop etadi, "riyoia qil yoki tushuntir" xalqaro tamoyiliga rioya qilingan holda uning sabablarini to'liq oshkor etadi.

VII. JAVOBGARLIK

38. Mazkur Tartib talablarini bajarish Jamiyatning Kuzatuv kengashi tomonidan nazorat qilinadi.

39. Mazkur Tartib talablarini buzganlikda aybdor shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgardirlar.

VIII. YAKUNLOVCHI QOIDALAR

40. Mazkur Tartib Jamiyat Kuzatuv kengashining qarori bilan tasdiqlanganidan so'ng kuchga kiradi.

Mazkur Tartibni tasdiqlash bo'yicha kuzatuv kengashining qarori majlisda ishtirok etgan kuzatuv kengash a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan yoki kuzatuv kengashining majlisi sirtidan o'tkazilgan taqdirda Kuzatuv kengashining barcha a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi.

41. Qonunchilikka o'zgartirish kiritilishi, Jamiyatning Ustavi, ichki hujjatlariga o'zgartirish va/yoki qo'shimcha kiritilishi va boshqa holatlarda mazkur Tartibga o'zgartirish va/yoki qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

42. Mazkur Tartibga o'zgartish va qo'shimchalari Jamiyatning Kuzatuv kengashi qarori bilan tasdiqlanganidan so'ng kuchga kiradi.

Mazkur Tartibga o'zgartish va qo'shimchalarni tasdiqlash bo'yicha Kuzatuv kengashining qarori majlisda ishtirok etgan kuzatuv kengashi a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan yoki kuzatuv kengashining majlisi sirdan o'tkazilgan taqdirda Kuzatuv kengashining barcha a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi.

43. Agar mazkur Tartibning ayrim moddolari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga va/yoki Jamiyat Ustaviga zid bo'lsa, bu moddalar o'z kuchini yo'qotadi va mazkur Tartibga tegishli o'zgartishlar kiritilgunga qadar bu moddalar bilan tartibga solinuvchi masalalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi normalari va/yoki Jamiyat Ustaviga amal qilinishi lozim.

«Dehqonobod kaly zavodi» aksiyadorlik jamiyatida korporativ boshqaruv tizimini baholashni o'tkazish uchun mustaqil tashkilotni tanlash Tartibi"ga 1-ilova

№	Ko'rsatkichi	Ball				
		1	2	3	4	5
1	Bozorda ishlash davomiyligi	0-2	3-5	6-8	9-15	15 yildan ortiq
2	Qimmatli qog'ozlar bozori mutaxassisi guvohnomasi ega mutaxassislar soni	0-2	3-5	6-8	9-10	10
3	Korporativ boshqaruvchi guvohnomasi ega mutaxassislar soni	0-2	3-5	6-8	9-10	10 dan ortiq
4	Xalqaro sertifikatlangan mavjudligi	0-2	3-5	6-8	9-10	10 dan ortiq
5	Ko'rsatiladigan xizmatlarning narxi	16 mln. so'mdan yuqori	14-16 mln. so'm	12-14 mln. so'm	10-12 mln. so'm	10,0 mln. so'mgacha